

MILLIY QADRIYATLAR VA INNOVATSION TA'LIM YONDASHUVLARI UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy qadriyatlar bilan innovatsion ta'lim yondashuvlarining uyg'unligi muhokama qilinadi. Milliy qadriyatlar ta'lim jarayonida asosiy o'ringa ega bo'lib, ularni innovatsion usullar bilan uyg'unlashtirish bolalarning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Maqola ta'lim tizimida milliy an'analarni saqlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, innovatsion ta'lim, ta'lim yondashuvlari, ma'naviy tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim tizimi.

СОВМЕСТИМОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В статье рассматривается вопрос совместимости национальных ценностей с инновационными образовательными подходами. Национальные ценности играют ключевую роль в образовательном процессе, а их сочетание с инновационными методами служит духовному и интеллектуальному развитию детей. В статье подчёркивается важность сохранения национальных традиций и внедрения современных педагогических технологий в систему образования.

Ключевые слова: национальные ценности, инновационное образование, образовательные подходы, духовное воспитание, современные технологии, система образования.

COMPATIBILITY OF NATIONAL VALUES AND INNOVATIVE EDUCATIONAL APPROACHES

Annotation. article discusses the harmony between national values and innovative educational approaches. National values play a key role in the educational process, and their integration with innovative methods contributes to the spiritual and intellectual development of children. The article emphasizes the importance of preserving national traditions while implementing modern pedagogical technologies in the education system.

Keywords: national values, innovative education, educational approaches, spiritual upbringing, modern technologies, education system.

Kirish. So'ngi yillarda yurtimizda har bir soha jadal rivojlanib bormoqda. Shu jumladan ta'lim sohasi ham shiddat bilan rivojlanib, xorijiy andozalarga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalari kirib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida yosh pedagog kadrlarni ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalayotgan va ta'lim berayotgan o'z kasbining mutaxassislari oldiga har tomonlama jahon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh, malakali kadrlarni tayyorlashdek muhim vazifani qo'yadi. Xususan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash-bu eng og'ir vazifa bo'lib, juda katta mehnat va mas'uliyatni talab etadi" -deya yosh pedagog kadrlarni tayyorlashni "eng og'ir vazifa" deb ta'kidlagan. Ta'lim-tarbiya sohasida yangi davr boshlanmoqda. Bugungi kunga kelib, o'qituvchi kasbi va shaxsi oldiga muhim vazifalar qo'yildi. Faqat ilmi bor o'qituvchiga emas, balki har tomonlama shakllangan, rivojlanishdan to'xtamaydigan zamonaviy o'qituvchiga ehtiyoj tug'ildi.

Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari o'rtasidagi uyg'unlik masalasi hozirgi zamon ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy va ma'naviy meros sifatida qabul qilingan milliy qadriyatlar yosh avlodning ma'naviy rivojlanishi hamda milliy ruhda tarbiyalanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'limning samaradorligini oshirish, yoshlarning zamonaviy talablarga mos keluvchi kasbiy va axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari uyg'unligi yosh avlodni ma'naviy barkamol va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan fuqarolar sifatida tarbiyalashda asosiy mezon hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoev ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida milliy ma'naviyat va innovatsiyalarni uyg'unlashtirishning muhimligini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, «milliy qadriyatlarimizni mustahkamlaydigan, zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimini barpo etish – davlat siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biridir» (Mirziyoev Sh.M., O'zbekistonning istiqbollari, T., 2019, b. 45). Bu fikrlar ta'lim sohasida milliy urf-odat va an'analarni saqlab qolgan holda, yangi texnologiyalarni joriy etish zarurligini ochiq-oydin ko'rsatib beradi.

Milliy qadriyatlar va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Mirziyoev ta'lim sohasidagi bunday integratsiya haqida: «Yangi davr talablari bo'yicha ta'lim berishda milliy ma'naviyat va innovatsion texnologiyalarni birgalikda qo'llash – bizning yo'limizdir» deb aytib o'tadi (Mirziyoev Sh.M., Ta'lim strategiyasi, T., 2021, b. 112).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy qadriyatlar ta'lim jarayonida yosh avlodning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga asosiy ta'sir etuvchi omillardan biridir. Olim Ikromjon Haydarov ta'limda milliy qadriyatlarning o'rni haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Milliy qadriyatlar nafaqat ta'lim jarayonining ma'naviy asosini tashkil etadi, balki yoshlar orasida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ham muhimdir. Olim ta'limda milliy qadriyatlarning o'rni haqida fikr yuritib, shunday yozadi: «Milliy qadriyatlar har bir millatning ma'naviy merosi bo'lib, ularni innovatsion ta'lim bilan uyg'unlashtirish yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi» (Haydarov I., Milliy ta'lim va innovatsiyalar, Samarqand, 2021, b. 32). Bu esa ta'lim jarayonida milliy va zamonaviy tamoyillarni birlashtirish muhim ekanini ko'rsatadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari esa bilim berish jarayonini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, raqamli vositalar, interaktiv platformalar, sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi, yoshlarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ravshan Qurbonov ta'limda innovatsiyalarning roli haqida ta'kidlaydi: «Innovatsion ta'lim texnologiyalari milliy ta'lim tizimiga zamonaviylik va samaradorlikni beradi» (Qurbonov R., Ta'lim va innovatsiya, T., 2020, b. 58).

Shu bilan birga, innovatsiyalarni joriy etishda milliy qimmatlarni saqlab qolish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Prezident Mirziyoev ta'lim sohasida bunday integratsiya haqida shunday fikr bildirgan: “Yangi davr talablari bo'yicha ta'lim berishda milliy ma'naviyat va innovatsion texnologiyalarni birgalikda qo'llash – bizning yo'limizdir” (Mirziyoev Sh.M., Ta'lim strategiyasi, T., 2021, b. 112). Demak, milliy va innovatsion elementlarni uyg'unlashtirish davlat ta'lim siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlar yosh avlodning o'zlik tushunchasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta'lim jarayonida yoshlarni milliy g'oyalarga sodiq qolgan holda jahon hamjamiyatining talablariga javob bera oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Jasur Abdullaev ta'limda ma'naviyat va innovatsiyalarning uyg'unligi haqida yozadi: “Ma'naviy tarbiya va innovatsion ta'lim yondashuvlari bir-biri bilan uyg'unlashganda, yoshlar hayotga zamonaviy qarash bilan qarashni o'rganadilar va milliy g'oyalarga sodiq qoladilar” (Abdullaev J., Ma'naviyat va ta'lim, T., 2019, b. 74).

Shu bilan birga, milliy madaniyat va urf-odatlarni saqlash, ularni ta'limga integratsiya qilish milliy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi. Prezident Mirziyoev ta'lim tizimini

modernizatsiya qilish va milliy qadriyatlarni saqlab qolish o'rtasidagi muvozanat haqida shunday yozadi: "Biz milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda innovatsiyalarni keng joriy etamiz, ammo milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni saqlab qolishimiz lozim" (Mirziyoev Sh.M., Ta'lim sohasida islohotlar, T., 2022, b. 89).

Ta'limda milliy va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish yoshlarning jahon miqyosida raqobat qila oladigan malakali mutaxassislar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish zarur. Gulnora Toshpo'latova o'z qarashlarida: "Milliy ta'lim va innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi integratsiya yoshlarimizning jahonning zamonaviy talablariga javob bera oladigan mutaxassislar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi" deb ta'kidlaydi (Toshpo'latova G., Milliy ta'lim va innovatsiya, T., 2023, b. 101).

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari uyg'unligi orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- milliy qadriyatlarbo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilish;
- milliy qadriyatlarni chuqur o'rganish va ularning ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi haqida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ko'nikmasini shakllantirish
- ularning milliy ma'naviyatni sinash orqali va o'quv jarayoniga integratsion yondashuv qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari — interaktiv dasturlar, raqamli platformalar, onlayn resurslar bilan ishlashga o'rgatish kerak. Bu ularning innovatsion yondashuvlarni hayotga tatbiq qilishda kreativlik qobiliyatlarini oshiradi. Chunki pedagogik faoliyat uchun is'tedod, qobiliyat, mohirlik, kreativlik, ijodkorlik, intellekt, talant kabi bir qator shaxsiy sifatlar muhim o'ringa ega. Ta'lim oluvchiga zamonaviy bilim berish uchun o'qituvchidagi pedagogik mahorat zamon talablariga mos va xos bo'lishi kerak. Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'limni uyg'unlashtiruvchi mashg'ulotlar, keys-stadiylar, muammo asosida ta'lim kabi amaliy uslublarni joriy etish kerak. Bu o'qituvchilarning muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tarixiy va madaniy ekskursiyalar tashkil etishb milliy madaniyat va tarix ob'ektlariga ekskursiyalarga olib borish ularning milliy qadriyatlarga muhabbatini va tushunishini chuqurlashtiradi hamda ta'limda ushbu qadriyatlarni qo'llashga zamin yaratadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni jamoada ishlashga, muloqot qilishga, muhokamalarda ishtirok etishga o'rgatish — ularning hamkasblari bilan tajriba almashish va innovatsion g'oyalarni muhokama qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Milliy qadriyatlarning ma'naviy va axloqiy jihatlarini ta'lim jarayonida samarali qo'llash usullarini o'rgatish. Bu esa yoshlarni milliy an'analariga sadoqatli tarbiyalash imkonini beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy qadriyatlar asosida yangi ta'lim loyihalari va tadqiqotlarini ishlab chiqishga, amaliy ishlar olib borishga undash kerak. Bu ularning nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etishni ta'minlaydi. Shuningdekdoimiy ravishda milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim sohasidagi yangi yutuqlar bilan tanishishga, seminarlar va treninglarda faol ishtirok etishga yo'naltirish zarur.

Umuman olganda, bunday kompleks yondashuv yordamida bo'lajak o'qituvchilar milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim prinsiplarini uyg'unlashtirish, ularni zamonaviy ta'lim amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llash bo'yicha zarur amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion texnologiyalarni ta'limda samarali qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish va bu jarayonda milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikni ta'minlash uchun quyidagi interaktiv metodlar tavsiya etiladi:

Keys-stadiylar

O'qituvchilarga ta'limda milliy qadriyatlar va innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish bilan bog'liq haqiqiy yoki yaqin misollar taqdim etiladi. Ular bu holatlarni tahlil qilib, muammolarni hal etish yo'llarini topadilar. Bu usul fikrlashni chuqurlashtiradi va amaliyotga yaqinlashtiradi.

Muloqotli muhokamalar

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda milliy qadriyatlarni saqlash masalasiga bag'ishlangan muhokamalar tashkil etiladi. Har bir ishtirokchi o'z fikrini bildirib, boshqalarning qarashlari bilan solishtiradi. Bu yoshlarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Rol o'yinlari

O'qituvchilar turli ssenariylarda o'qituvchi, talabalar yoki ota-onalar rolini bajaradilar. Masalan, milliy qadriyatlarni inkor etmasdan, innovatsion usullarni qanday joriy etish mumkinligi haqidagi vaziyatlarni o'ynash. Bu uslub emotsional hislarni jalb etadi va ta'lim jarayoniga faol ishtirokni ta'minlaydi.

Interaktiv prezentatsiyalar va vizual vositalar

Ta'lim jarayonida slaydlar, video, infografika, multimedia vositalari qo'llaniladi. O'qituvchilar o'zlari ham interaktiv taqdimotlar tayyorlaydilar, bu ularning zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmasini oshiradi.

Guruhli loyihalar

Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'limni birlashtiruvchi loyihalar yaratish. Guruhlar a'zolari birgalikda ishlab, yangi ta'lim vositalari yoki metodikasini ishlab chiqadilar va taqdim etdilar. Bu hamkorlik va mas'uliyatni oshiradi.

Onlayn platformalardan foydalanish

Masofaviy ta'lim yoki elektron o'quv platformalaridagi interaktiv kurslar, forumlar, viktorinalar orqali bilimlarni kuchaytirish. Milliy qadriyatlar va innovatsiyalarni uyg'unlashtirish mavzusida elektron muhokamalar tashkil etish mumkin.

Kreativ yozish va ijodiy topshiriqlar

Bo'lajak o'qituvchilardan milliy qadriyatlar asosida innovatsion ta'lim usullari to'g'risida maqola yoki esse yozish so'raladi. Yoki yangi o'quv materialini yaratish bo'yicha ijodiy vazifalar berish mumkin.

Bunday interaktiv usullar bo'lajak o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda juda samaralidir. Milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikni saqlab qolgan holda innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari uyg'unligi mavzusida quyidagi interaktiv prezentatsiyalar va vizual vositalardan foydalanish mumkin. Masalan:

1. Interaktiv slaydlar

Qisqa videoroliklar — Prezident Mirziyoevning milliy qadriyatlar va ta'lim haqidagi nutqlari yoki iqtiboslari. Test va viktorinalar — har bir slayd so'nggida savollar va variantlar, ularni ishtirokchilar to'g'ri javob berishi kerak. Masalan: "Milliy qadriyatlar ta'limda nima uchun muhim?" Javob variantlari bilan interaktiv test. Tasvirlar va infografika — milliy qadriyatlar ramzlari, ta'lim jarayonida innovatsiyalarning rivojlanish grafiklari. Harkatlanuvchi elementlar — masalan, belgilangan slaydda ma'lumotlarga bosilganda qo'shimcha izohlar ochilishi.

2. Multimedia vositalar

Video-darslar va intervyular — olimlarning milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim to'g'risidagi fikrlari. Animatsiyalar — ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni qo'llash va innovatsiyalarni uyg'unlashtirish jarayonlari animatsiya qilingan holda namoyish etiladi. Interaktiv xaritalar — O'zbekistonning turli hududlarida milliy ta'lim qadriyatlari va innovatsion ta'limga oid misollarni ko'rsatish.

3. Interaktiv onlayn platformalar

Qiziqarli viktorinalari — mashg'ulot so'ngida yoki o'rtada testlar o'tkazish, jamoa bilan raqobatlashish uchun. Mentimetr so'rovlari — ishtirokchilardan milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim to'g'risidagi fikrlarni anonim yig'ish va tezkor tahlil qilish. Interfaol darslar — slaydlar, savollar, video va amaliy vazifalarni birlashtirgan bir dars platformasi.

4. Infografika va vizual qurilmalar

Milliy qadriyatlar ramzlari va ularning ta'limdagi roli haqidagi grafiklar. Ta'limda innovatsion usullarning bosqichlari va ularni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish sxemalari.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun— innovatsion texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

5. Keys-stadiylarni vizuallashtirish

Har bir keys uchun multimediya slaydlari tayyorlash. Masalan, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda yangi texnologiyalarni joriy etish misoli. Keysning ssenariylari, masalalar va echimlari interaktiv formatda taqdim etilishi mumkin.

Qo'shimcha tavsiyalar:

Prezentatsiyalarda shrift va ranglar milliy ramzlarga muvofiq tanlanishi kerak (masalan, o'zbek milliy ranglari — ko'k, oq, qizil). Matnlar qisqa, tushunarli va aniq bo'lishi kerak. Har bir interaktiv element ishtirokchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari uyg'unligi mavzusida ishtirokchilarning faolligini oshirish uchun mo'ljallangan quyidagi interaktiv o'yinlardan mashg'ulotlarda foydalanish qiziqarli bo'lib ta'lim samaradorligini oshiradi.

1. "Milliy qadriyatlar va innovatsiyalar viktorinasi"

Maqsad: Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim bo'yicha bilimlarni sinash va mustahkamlash.

Metodning amalga oshirilish tartibi:

Turli darajadagi savollar tayyorlanadi, masalan:

"Milliy qadriyatlar nima uchun muhim?"

"Prezident Mirziyoev ta'limda qaysi innovatsiyalarni qo'llashni tavsiya qiladi?"

"Quyidagi qaysi ta'lim usuli milliy qadriyatlarni saqlashga yordam beradi?"

Savollarga javoblar interaktiv platforma orqali to'planadi.

Javob berish tezligi va to'g'ri javoblar uchun ballarlar beriladi.

G'oliblar aniqlanadi va mashg'ulot so'ngida mukofotlanadi.

Samarasi: Har bir ishtirokchi mashg'ulot mavzusini o'rganishga qiziqish bilan yondashadi, bilimlarini sinashga ulguradi.

2. "Milliy qadriyatlar labirinti"

Maqsad: Milliy qadriyatlarni o'qitishda innovatsion usullarni qo'llashni amaliy o'rganish.

Metodning amalga oshirilish tartibi:

Ishtirokchilar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga labirint yoki murakkab muammo topshiriladi.

Har bir bosqichda ularga milliy qadriyatlar va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda muammoni hal qilish topshirig'i beriladi.

Masalan, "O'quv jarayonida milliy an'analarni saqlab qolgan holda yangi raqamli resursni joriy qilish kerak".

Guruhlar o'z echimlarini taqdim etib, boshqalar bilan muhokama qilishadi.

Samarasi: Hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi, milliy qadriyatlar va innovatsiyalar o'rtasidagi uyg'unlik tushuniladi.

3. "Ijodiy loyiha yaratish"

Maqsad: Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'limni uyg'unlashtiruvchi loyihalarni ishlab chiqish.

Metodning amalga oshirilish tartibi:

Ishtirokchilar guruhlariga bo'linadi va o'qituvchi tomonidan beriladigan temaga muvofiq loyiha ishlab chiqadi:

Masalan, "Milliy qadriyatlar asosida elektron dars yaratish" yoki "Innovatsion texnologiyalar yordamida milliy ma'naviyatni tarbiyalash".

Loyihalar uchun cheklangan vaqt beriladi (30-40 daqiqa).

Har bir guruh o'z loyihasini qisqacha taqdim qiladi va savollarga javob beradi.

Taqdimotlar muhokama qilinadi va eng yaxshi loyihalar tanlanadi.

Samarasi: Taxminiy, kreativlik va amaliy ko'nikmalar rivojlanadi, milliy qadriyatlar bilan innovatsion yondashuvlar birlashtiriladi.

4. "Milliy qadriyatlar va texnologiyalar rol o'yini"

Maqsad: Milliy qadriyatlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashdagi emotsional va ijtimoiy muammolarni o'rganish.

Metodning amalga oshirilish tartibi:

Har bir ishtirokchiga muayyan rol (o'qituvchi, talabalar, ota-onalar, maktab rahbariyati) beriladi.

Ssenariy asosida ishtirokchilar o'z rollarini o'ynab, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muammolarni muhokama qilishadi.

Har bir guruh yoki jamoa o'z echimlarini namoyish etadi.

Samarasi: Qarshiliklarni tushunish va ularni hal qilishda kommunikativ ko'nikmalar, empatiya va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

5. "Interaktiv infografika yaratish"

Maqsad: Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim masalasini vizuallashtirish va jamoaviy ishlash.

Metodning amalga oshirilish tartibi:

Ishtirokchilar onlayn platformada (masalan, Padlet yoki Canva) jamoa bo'lib infografika yaratishadi.

Mavzu: "Milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim: uyg'unlik va istiqbollari".

Har bir ishtirokchi ma'lumot yoki grafik element qo'shadi, ma'lumotlarni muhokama qiladi.

Samarasi: Vizual kommunikatsiya ko'nikmalari rivojlanadi, jamoaviy hamkorlik samarali bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Milliy qadriyatlar — millat ma'naviyatining asosiy ustuni bo'lib, ularni ta'lim jarayonida saqlash va boyitish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omildir. Innovatsion ta'lim yondashuvlari esa bilim berishning samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda ijodiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun milliy qadriyatlar bilan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini uyg'unlashtirish ta'lim tizimining barqaror va mazmunli rivojlanishini ta'minlaydi. Bunday yondashuv yosh avlodni ham ma'naviy, ham intellektual jihatdan etuk shaxs sifatida voyaga etkazishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy ma'naviyatni saqlash bilan birga innovatsion usullarni keng joriy etish yosh avlodning milliy va jahon darajasida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonning istiqbollari. T., 2019. b. 45.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim strategiyasi. T., 2021. b. 89-112
3. Abdullaev J. Ma'naviyat va ta'lim. T., 2019. b. 74
4. Haydarov I. Milliy ta'lim va innovatsiyalar. Samarqand, 2021. b. 32.
5. Toshpo'latova G. Milliy ta'lim va innovatsiya. T., 2023. b. 101
6. Qurbonov R. Ta'lim va innovatsiya. T., 2020. b. 58
7. Xaydarova O.K. Pedagogik mahorat. Qarshi., 2025. b. 35.